



THE ROLE OF FEMALE ARTISTS IN THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK FOLK SONG TRADITIONS (BY THE EXAMPLE OF AYIMKHAN SHAMURATOVA AND GULKHATISHA AYIMBETOVA)

Jalgasbaeva Azada

2nd-year Master's Student, Nukus Branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20343930>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Online: 22nd May 2026

KEYWORDS

Karakalpak folk song, female artist, vocal art, folklore, repertoire, performance.

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the role played by female artists in the development of Karakalpak folk song traditions. In particular, the creative activities, repertoire features, performance skills, and contribution to the preservation and development of the national musical heritage of the prominent representatives of Karakalpak professional vocal art, Ayimkhan Shamuratova and Gulkhatisa Ayimbetova, will be studied. Additionally, the works of artists are analyzed on a comparative basis, highlighting their significance in the development of Karakalpak folk singing.

QORAQALPOQ XALQ QO'SHIQCHILIK AN'ANALARINING RIVOJLANISHIDA AYOL SAN'ATKORLAR FAOLIYATI (AYIMXAN SHAMURATOVA VA Gulxatisha AYIMBETOVA MISOLIDA)

Jalg'asbaeva Azada

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20343930>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Online: 22nd May 2026

KEYWORDS

Qoraqalpoq xalq qo'shig'i, ayol san'atkor, vokal san'ati, folklor, repertuar, ijrochilik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq qo'shiqchilik an'alarining taraqqiyotida ayol san'atkorlarning tutgan o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, qoraqalpoq professional vokal san'atining yirik vakillari Ayimkhan Shamuratova va Gulxatisha Ayimbetovaning ijodiy faoliyati, repertuar xususiyatlari, ijrochilik mahorati hamda milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirishdagi hissasi o'rganiladi. Shuningdek, san'atkorlar ijodi qiyosiy asosda tahlil qilinib, ularning qoraqalpoq xalq qo'shiqchiligi taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi.

Kirish. Qoraqalpoq xalqining boy ma'naviy merosi tarkibida xalq qo'shiqlari alohida o'rin egallaydi. Zero, xalq qo'shiqlari xalqning tarixi, ruhiyati, estetik qarashlari, ijtimoiy hayoti hamda milliy xotirasini o'zida aks ettiruvchi

muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, xalq musiqasi og'zaki ijod mahsuli sifatida avlodan-avlodga o'tib kelgani sababli uning yashovchanligi ko'p jihatdan ijrochilar faoliyatiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan



qaraganda, qoraqalpoq xalq qo'shiqchilik an'alarining shakllanishi va rivojlanishida ayol san'atkorlarning hissasi nihoyatda katta bo'lgan [4].

Tarixan qaralganda, qoraqalpoq xalq musiqasi baxshichilik, dostonchilik, xalq qo'shiqchiligi hamda sahna vokal ijrochiligi bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etgan. Dastlab xalq orasida ijro etilgan qo'shiqlar keyinchalik professional sahna san'atining tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, XX asrda teatr, filarmoniya, radio va ansambl san'atining rivojlanishi qoraqalpoq qo'shiqchilik madaniyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Ana shunday jarayonda ayol san'atkorlar milliy musiqani saqlash, sahnalashtirish va keng ommaga yetkazishda muhim vazifani bajardilar [3, 349-357].

Qoraqalpoq vokal san'ati tarixida Ayimxan Shamuratova alohida mavqega ega ijodkorlardan biridir. U 1917-yil Qo'ng'iro't rayonida tavallud topgan bo'lib, bolalik davridan boshlab xalq san'atiga qiziqish bildirgan. 1932-yilda To'rtko'lga o'qishga kirishi, havaskorlik to'garaklarida faol qatnashishi uning san'atga bo'lgan iste'dodini yuzaga chiqargan muhim omillardan bo'ldi. Aynan shu davrda ijro etgan "Bozataw", "Ariwxan" va boshqa xalq qo'shiqlari orqali u xalq e'tiborini qozona boshladi.

Ayimxan Shamuratovaning ijodiy faoliyatini tahlil qilganda, eng avvalo, uning ovoz imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim. U qoraqalpoq vokal san'atining yirik metssosoprano ijrochilaridan biri sifatida tanilgan. Ma'lumki, metssosoprano ovozi chuqur tembrga, boy emotsional ifoda imkoniyatlariga hamda keng dramatik

ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shu sababli Ayimxan Shamuratova ijrosida xalq qo'shiqlarining ichki ruhiyati, dard, sog'inch, muhabbat, sadoqat hamda milliy hissiyotlar ta'sirchan tarzda namoyon bo'lgan.

Bundan tashqari, Ayimxan Shamuratova faqat qo'shiqchi sifatida emas, balki iste'dodli aktrisa sifatida ham qoraqalpoq madaniyati tarixida muhim iz qoldirgan. Belgili dramaturg Ábdiraman Óte'pov tomonidan teatrga taklif qilinishi uning ijodiy faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. "Te'in tapqan qiz", "Tabanlı tartis", "Gúlsara" kabi spektakllarda bosh obrazlarni muvaffaqiyatli ijro etishi uning aktyorlik mahorati naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Aynan shu jihat Ayimxan Shamuratova ijodining o'ziga xos tomonini tashkil qiladi. Chunki unda qo'shiqchilik va teatr san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi [1, 122-134].

San'atkor ijrosidagi "Bozataw" qo'shig'i alohida ilmiy tahlilga loyiqdir. Mazkur qo'shiq qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, ijtimoiy fojiasi va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi asarlardan biri sanaladi. Ayimxan Shamuratova ushbu qo'shiqni ijro etishda nafaqat vokal mahoratini, balki sahna hissiyotini ham namoyon eta olgan. Natijada qo'shiq oddiy musiqiy ijro darajasidan chiqib, chuqur emotsional va badiiy hodisaga aylangan.

Ayimxan Shamuratovaning qoraqalpoq san'ati rivojidadagi xizmatlari davlat tomonidan ham yuqori baholangan. U "Qoraqalpoqstan xalq artisti", "SSSR xalq artisti" kabi yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Bu esa



san'atkorning nafaqat mahalliy, balki ittifoq miqyosidagi e'tirofini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq vokal san'ati rivojining keyingi bosqichlarida Gulxatisha Ayimbetova ijodi muhim o'rin egallaydi. U 1961-yilda Taxtakopir rayonida tug'ilgan bo'lib, professional musiqa ta'limini J. Shamuratov nomidagi Nukus davlat san'at bilim yurtida olgan. Mazkur ta'lim muassasasini 1983-yilda tamomlashi uning professional ijrochilik faoliyatiga mustahkam nazariy va amaliy asos yaratdi [2, 224-230].

Gulxatisha Ayimbetovaning ijodiy faoliyati "Ayqulash" hamda "Ámiw tolqini" ansambllari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jamoalarda faoliyat olib borishi san'atkorning sahna tajribasi ortishiga, repertuarining boyishiga hamda ijrochilik uslubining shakllanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, uning shi'ngirlaytu'gin, keng diapazonli va yoqimli ovozi tinglovchilar tomonidan yuqori baholangan.

Gulxatisha Ayimbetova repertuarida qoraqalpoq xalq qo'shiqlari muhim o'rin egallaydi. Jumladan, "Muwsa sen yari", "Nazlınıń", "Jaqsıraq", "Ne bilsin" kabi qo'shiqlar san'atkor ijrosida yangi badiiy talqinga ega bo'lgan. Mazkur qo'shiqlar mazmunan muhabbat, sadoqat, insoniy tuyg'ular, milliy qadriyatlar va estetik hissiyotlarni ifodalashi bilan ajralib turadi. San'atkor ushbu qo'shiqlarni ijro etishda an'anaviy qoraqalpoq xalq kuylash usullarini professional sahna madaniyati bilan uyg'unlashtira olgan.

Shuningdek, Gulxatisha Ayimbetova repertuaridan qoraqalpoq kompozitorlari asarlari ham muhim o'rin olgan. N. Muxammeddinovning "Keń dala", "Ata mákan", Q. Xilalovning "Watan", "Ana topıraǵım", "Ózbekstan"

kabi qo'shiqlari san'atkor ijrosida o'ziga xos badiiy ifodaga ega bo'lgan. Ayniqsa, mazkur asarlarda vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat, milliy g'urur va tarixiy xotira g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [5].

Muhim jihatlardan biri shundaki, Gulxatisha Ayimbetovaning ko'plab qo'shiqlari qoraqalpoq radiosi fonotekasi hamda gramplastinkalarga yozib olingan. Bu esa uning ijodiy merosining saqlanishi va keyingi avlodlarga yetib borishi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Chunki radiofond va arxiv yozuvlari milliy musiqiy xotiraning muhim manbasi sifatida xizmat qiladi.

Ayimxan Shamuratova va Gulxatisha Ayimbetova ijodini qiyosiy jihatdan o'rganish ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Avvalo, ikkala san'atkorni birlashtiruvchi jihat - xalq qo'shiqlariga sadoqat, milliy repertuarga e'tibor hamda qoraqalpoq vokal san'ati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasidir. Biroq ularning ijodiy yo'nalishlarida ayrim farqlar ham mavjud.

Ayimxan Shamuratova ko'proq professional teatr va klassik vokal maktabi vakili sifatida shakllangan bo'lsa, Gulxatisha Ayimbetova ansambl ijrochiligi va zamonaviy sahna vokali muhitida faoliyat olib borgan. Ayimxan ijodida drammatizm, sahna hissiyoti va aktyorlik mahorati kuchli namoyon bo'lsa, Gulxatisha ijodida keng diapazonli ovoz, repertuar xilma-xilligi va professional vokal texnikasi ustuvor hisoblanadi.

Shunga qaramasdan, ikkala san'atkor ijodi o'rtasida uzviy bog'liqlik ham mavjud. Chunki ular turli davrlarda faoliyat yuritgan bo'lsalar-da, umumiy



maqsad – qoraqalpoq xalq qo‘shiqchilik an‘analarini asrash, boyitish va yangi avlodga yetkazishga xizmat qilganlar. Shu jihatdan qaraganda, Ayimxan Shamuratova qoraqalpoq professional vokal san‘ati poydevorini mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, Gulxatisha Ayimbetova ushbu an‘analarni yangi davr talablariga mos holda davom ettirgan san‘atkor sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq qo‘shiqchilik an‘analarining rivojlanishida ayol san‘atkorlar faoliyati beqiyos ahamiyatga

ega. Ayimxan Shamuratova va Gulxatisha Ayimbetova ijodi orqali qoraqalpoq xalq musiqasi nafaqat saqlab qolingan, balki professional sahna madaniyati darajasida rivojlantirilgan. Ularning repertuari, vokal mahorati, sahna madaniyati hamda milliy musiqaga bo‘lgan sadoqati qoraqalpoq san‘ati tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil etadi. Binobarin, ushbu san‘atkorlar ijodini chuqur ilmiy o‘rganish qoraqalpoq musiqashunosligi, folklorshunosligi va madaniyatshunosligi uchun dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

References:

1. Ayjamal Kamiljanovna Turemuratova (2022). QORAQALPOQ MILLIY MUSIQA SAN‘ATI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, 3 (2), 122-134.
2. Gulbaxar Baltabayevna Isayeva (2025). Qoraqalpoq xalq eposlari va jirovlik san‘atining musiqiy jihatlari: an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar. *Science and Education*, 6 (3), 224-230.
3. G.T. Eshbaeva (2024). HOZIRGI DAVR QORAQALPOQ XALQ MUSIQASI: TADQIQOT TARIXI VA TARAKQIYOT TADRIJIDAN. *Inter education & global study*, (4), 349-357.
4. Khamraev, I. (2021). Qoraqalpoq musiqasi va zamonaviy ijrochilik. Nukus: Qoraqalpoq milliy universiteti nashriyoti
5. Nadirova A. Qoraqalpaq muzika tariyxi. - Tashkent: "Sano-standart". 2018. 384-b.